

## QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOQLARINI YASHIL IQTISODIYOT ORQALI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI.

**Ikromov. E. I.**

*Osiyo Xalqaro Universiteti o’qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini 2020–2030 yillarda rivojlanadirish strategiyasi loyihasi amalga oshirilmoqda. Majkur loyihadada bir qator revolyutsion nizomlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, Strategiya qabul qilinganidan so‘ng ularning amalga oshirilishi mamlakatdagi muhim sohasining ko‘rinishini tubdan o‘zgartirgani hayotiy zarurat hisoblanadi. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat va to‘qimachilik sanoati O‘zbekistonning iqtisodiyoti va aholisining farovonligi uchun ulkan ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** Qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat va to‘qimachilik sanoati, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, intellektual salohiyat, resurs, Investitsiya, iste’moldagi cheklov, iste’molchi tanlovi, texnika va texnologiyalarini yangilash.

So‘ngi yillarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini keng ko‘lamda yetishtirilishi munosabati bilan qishloq xo‘jalik korxonalariga bo‘lgan talab sezilarli darajada oshdi. Bu esa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini nafaqat yetishtirish, balki ularni sifatlari yetishtirish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Ayni vaqtida, respublikamizda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishda bir qator muammlolarning mavjudligi kuzatilmoqda. Malakali kadrlarning yetishmasligi, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash yo‘nalishining rivojlanmaganligi, tarmoq yo‘nalishlari bo‘yicha xom aysho va materiallarning yetishmovchiligining mavjudligi bu boradagi dolzarb muammolardan sanaladi.

Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 20 dekabrdagi “Mavjud yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, 2020 yil hosili uchun qishloq xo‘jalik ekinlarini oqilona joylashtirish va mahsulot yetishtirishning prognoz hajmlari to‘g‘risida”gi 1025-sون qarorida joriy yilda takroriy ekin ekiladigan 777 ming 634 hektar maydonlarning 199 ming 111 hektariga yoki 26 foiziga ozuqabop ekinlar ekilishi ko‘zda tutilgan.

Chorvador fermerlarimiz g‘alla hosili yig‘ib olingan maydonlarga takroriy ekin sifatida ozuqabop ekinlarni ekishda boy tajriba to‘plagan. Bu ishni kechiktirmasdan, o‘z vaqtida amalga oshirish natijasida qo‘sishma hosil, daromad, chorva qishloviga yetarli ozuqa jamg‘ariladi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 12 maydagagi “Chorvachilik tarmog‘iga davlat tomonidan subsidiya ajratishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi 280-soni qarori ijrosi bo‘yicha joylarda tizimli profilaktik

tadbirlar va monitoringlar o‘tkazilib kelinmoqda. Sohada yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda chorvalarning sonini oshirish, mahsulorlik sifatini yaxshilash, naslchilik resurslarini yaratish va saqlashga alohida e’tibor qaratilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad mintaqqa aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish bilan birgalikda chorvachilik mahsulotlari eksportini yanada oshirishdir.

Chorvachilik tarmog‘ini jadal rivojlantirish, zamonaviy va innovatsion uslublarni joriy etish, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek, aholini mahalliy sharoitda ishlab chiqarilgan sifatli va arzon chorva mahsulotlari bilan uzuksiz ta’minalash hamda chorvachilikka ixtisoslashgan korxonalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga mamlakatimizda alohida e’tibor qaratilmoqda.

Chorvachilik – mamlakat qishloq xo‘jaligining muhim tarkibiy qismidir. Chorvachilik tarmoqlarining maqsadga muvofiq, samarali joylashtirilishi, rivojlantirilishi respublikada mehnat taqsimoti ijobjiy hal etilishiga bevosita ta’sir etadi. Hududlarning tabiiy, iqtisodiy sharoitlarini hamda bozor talablarini e’tiborga olgan holda chorvachilikning qoramolchilik, qo‘ychilik, balliqchilik, asalarichilik, andatrachilik tarmoqlari joylashtirilishi va rivojlantirilishi zarur. Chunki bu tarmoqlarda oziq-ovqat va qayta ishslash sanoati korxonalari uchun go‘sht, sut, jun, teri, asal va boshqa mahsulotlar yetishtiriladi. Natijada sanoat tarmoqlarining rivojlantirilishi ham ta’milanadi, chorvachilik tarmoqlarida inson salomatligi uchun zarur, oqsil moddalarga boy bo‘lgan turli xildagi mahsulotlar ham yetishtiriladi. 2021-yilda respublikada aholi jon boshiga o‘rtacha 87,3 kg. go‘sht (tirik vaznda), 375,8 kg. sut yetishtirilgan.

Bu inson organizmi uchun zarur miqdor yoki tibbiyot normativlaridagiga nisbatan kam. Shuning uchun respublika hukumati mamlakatning barcha sohalarida chorvachilikni rivojlantirishga qaratilgan yirik dasturlar ishlab chiqib, ularni amaliyatga tatbik etish bo‘yicha qator chora-tadbirlarni amalgalash oshirmoqda. Bundan tashqari chorvachilikda o‘simlikchilik va chorvachilikning ayrim sohalari rivojlanishini ta’minlaydigan mahsulotlar ham yetishtirilmoqda. Masalan, chorva chiqindisi – go‘ng tuproq unumdorligini oshiradi, o‘simliklar uchun organik o‘g‘it hisoblanadi. Chorvachilik mahsuloti sut esa aholi tomonidan iste’mol qilinishidan tashqari yangi tug‘ilgan yosh hayvonlarga ham beriladi.

Chorvachilik tarmoqlarida yalpi qishloq xo‘jaligi mahsulotining 11 foizga yaqini yetishtirilmoqda. Uning 90 foizga yaqinini aholi xo‘jaliklari yetkazib bermoqda. Demak, qolgan qismi jamoa mulkchiligiga asoslangan xo‘jaliklar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Chorvachilik tarmoqlarida yetishtirilayotgan mahsulotlarning asosiy qismi respublika aholisi talablarini qondirish maqsadida ichki bozorlarda, cheklangan miqdori esa tashqi bozorlarda sotilmoqda.

Kelajakda bu muammoni hal etishga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiqli. Buning uchun ob’ektiv imkoniyatlar mavjud. Respublika chorvachiligidagi ekologik

jihatdan barcha talablarga javob beradigan go'sht, sut mahsulotlarini, teri, ayniqsa, qorako'l terisini, jun yetishtirishni rivojlantirib, ularni tashqi bozorda sotish mumkin. Bunda aholining chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish darajasi ham yuksaltiriladi. Natijada tarmoqning mamlakat xalq xo'jaligidagi o'rni, ahamiyati ortadi.Qarorning ushbu bandi qorako'lchilikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Keyingi yillarda sur, qora va ko'k terili, yuqori elita sinfli nasldor qorako'l qo'ylar yetishtirishga ixtisoslashtirilgan Ilmiy naslchilik tajriba stansiyalari faoliyati alohida o'rin tutmoqda. Ularning va naslchilik xo'jaliklari maqomiga ega boshqa subyektlarning ushbu imtiyozlardan kelgusi uch yil mobaynida foydalanishi natijasida o'z hisoblarida qolgan mablag'lar asosiy faoliyatni kengaytirishlari uchun xizmat qiladi.Hujjatga muvofiq, 2021-yil 1-iyuldan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi bo'lgan chorvachilik xo'jaliklariga – o'z xo'jaliklarida yetishtirilib, go'sht uchun realizatsiya qilingan yirik va mayda shoxli qoramollar tirik vaznining har bir kilogrammi uchun 2 000 so'm hamda sog'ilgan sutning har bir litri uchun 200 so'm miqdorida respublika byudjetidan subsidiya ajratiladi. Ushbu bandda nazardautilgan subsidiyalar qo'shilgan qiymat solig'idan qarzdorligi mavjud bo'limgan, shuningdek, kontragentlarni tanlashda lozim darajada ehtiyyotkor bo'lgan korxonalarga o'z arizalariga asosan keyingi oyning 25-sanasigacha ajratilishi belgilab qo'yilgan.

Muhim masalalardan yana biri, davlat veterinariya xizmati tizimida chorva mollari, parrandalar va baliqlar ozuqasi tarkibini tahlil qilish hamda parrandalar kasalliklari tashxisini qo'yish bo'yicha laboratoriyalari tashkil etilishidir. Buning uchun shu yil 1-aprelga qadar Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg'armasidan 3 milliard so'm mablag' ajratilishi belgilangan.

Baliqchilik va parrandachilik sohalarini sug'urtalash tizimi bugungi kun talablariga javob bermaydi. Misol uchun, bo'ron, dovul, sel, suv toshqini, zilzila, kasalliklar oqibatida nobud bo'lish, mazkur joyga xos bo'limgan darajada havoning sovuq yoki issiq kelishi, portlash, baliqxo'r qushlar tomonidan zarar yetkazilishi va uchinchi shaxs tomonidan qasddan qilingan harakat, o'g'riliklar tufayli baliqchilik xo'jaliklari zarar ko'rishi mumkin.

Yoki parrandachilik xo'jaliklarini turli kasalliklar tarqalishi va favqulodda vaziyatlar (elektr energiyasi va tabiiy gazdagiz uzelishlar) oqibatida nobud bo'lishidan sug'urta orqali himoyalash tizimi mavjud emas. Shu sababli Moliya vazirligi «O'zbekbaliqsanoat» uyushmasi hamda «O'zbekchorvanasl» agentligi bilan birgalikda bir oy muddatda baliqchilik va parrandachilik xo'jaliklarini yuqoridagi holatlardan himoyalashga qaratilgan sug'urtalash tartibini ishlab chiqib, Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifasi qo'yildi.

Yetishtirilgan mahsulotlarni sotishga ko'maklashish ishlab chiqarishdan qisqa muddatlarda do'konga chiqarilishini ta'minlashda xarajatni kamaytirish va mahsulotlar

sifati buzilishining oldini olishda katta ahamiyatga ega. Shu maqsadda parrandachilik va baliqchilik xo'jaliklariga o'zi ishlab chiqargan tuxum, parranda go'shti va baliq mahsulotlarini sotish uchun dehqon bozorlari va aholi gavjum hududlardan doimiy savdo joylari (nuqtalari), har bir dehqon bozorida hamda shahar (tuman)dagi aholi gavjum joylarda kamida 2 tadan yengil konstruksiya asosida parranda va baliq mahsulotlari sotishga mo'ljallangan savdo do'konlarini qurish uchun joy ajratiladi. Bu ishlarni tashkil etishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, «Parrandasanoat» va «O'zbekbaliqsanoat» uyushmalari mas'ul etib belgilandi.

Arzon va sifatli ozuqa bilan ta'minlash chorva mahsuloti tannarxini kamaytirishda asosiy omillardan biri. Endilikda «O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjası» AJ raps (urug'i, shroti, kunjarasi, yog'i), pista (urug'i, shroti, kunjarasi, yog'i), soya (urug'i, shroti, kunjarasi, yog'i), baliq uni va yog'i, arpa, makka, fosfat va xolin xlorid mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi xorijiy kompaniyalarni birja savdolariga jalb qilish choralarini ko'radi. Bu jarayonda mahsulotlarni birja orqali milliy yoki xorijiy valyutada import qilishga ruxsat berilgani ham ayni muddao bo'ldi. Zero, bu ishlar yaxshi tashkil etilsa, ozuqa narxlari maqbullahadi va barqarorlashadi.

Jamiyatning ekologik jihatdan toza mahsulotlarga bo'lgan talabi o'sib bormoqda. Ammo bu boradagi talab hozirgi davrda to'liq qondirilgani yo'q. Muammoni hal etish uchun bir qancha tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirish, jumladan, chorvachilikda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish kerak. Bu jarayonni bir necha yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirish mumkin.

Masalan, respublika hududlarining, xo'jaliklarning yo'nalishlarini e'tiborga olgan holda chorvachilik tarmoqlarini maqsadga muvofiq joylashtirib, ularni ixtisoslashtirish jarayonlarini rivojlantirishga e'tibor berish lozim. Chorva hayvonlarini ijara pudratchilariga, chorvachilik fermalarini esa ijaraga berish, ijarachilarga talabini qondiradigan hajmdagi ekin maydonlarini ham uzoq muddatga ijaraga ajratish zarur. Bu jarayonda samaradorlikka erishish uchun ijarachilar moliyaviy mablag'lar bilan yetarli miqdorda ta'minlanishiga ham alohida e'tibor berish kerak. Bu tadbir ochiq tanlov asosida shu soha bo'yicha tajribali, bilimdon, qonun ustuvorligini tan oladigan, insofli, ma'naviyati yuqori bo'lgan fuqarolar zimmasiga yuklanishi maqsadga muvofiqdir. Bu borada ijara munosabatlarini erkin bozor talablariga moslashtirish kerak.

Chorvachilik fermalarining zamonaviy talablarga javob beradigan moddiy- texnika bazasini bosqichma-bosqich rivojlantirishga alohida e'tibor berish vaqtি keldi. Chorvachilik bino-inshootlari fan-texnika yutuqlarini e'tiborga olgan holda moslashtirilishiga, tegishli vositalar bilan ta'minlanishga, chorva hayvonlari yaxshi parvarishlanib, sifatli mahsulot yetishtirishda yangi texnikalar, ilg'or texnologiyalar joriy etilishiga erishish lozim. Shudagina tarmoqda ishlab chiqarish jarayonlari

mexanizatsiyalashtirilib, mehnat unumdorligining oshishi ta'minlanadi. Naslchilik ishlarini rivojlantirib, sermahsul chorva zotlarini yaratib, ular ishlab chiqarishga tezroq tatbiq etilishini ta'minlash, bunda zotli, sermahsul chorva hayvonlarini sotib olish variantidan foydalanishni ham esdan chiqarmaslik kutilgan natijaga erishish imkoniyatini kengaytiradi.

Chorvachilikning ozuqa bazasini mustahkamlash uchun yem-xashak yetishtiriladigan maydonlarni kengaytirib, ekinlarni almashlab ekishni rivojlantirish lozim. Bunda yem-xashak ekinlari ekiladigan maydonlarning suv ta'minotiga, meliorativ holatini yaxshilashga hamda organiq va mineral o'g'itlardan talab darajasida foydalanishga alohida ahamiyat berish zarur. Bu masalani hal etish uchun qayta ishlash sanoati korxonalarida ishlab chiqariladigan to'yimli ozuqa moddalari talab darajasida olinishini, chorva mollariga shakllangan ozuqa ratsion asosida vaqtida berilishini ham tashkil etish zarur. Bu masalaning dolzarbigini e'tiborga olib, respublika hukumati xo'jaliklarga iqtisodiy jihatdan ko'maklashish yo'llarini, mexanizmlarini ishlab chiqqan. Jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar ajratish, shu maqsadda chetdan moddiy-texnika resurslari keltirilsa, ular bojxona to'lovlaridan ozod etilishi va boshqa chora-tadbirlar belgilangan.

Bu jarayonda chet el investitsiyalari jalb etilishiga alohida e'tibor berish zarur.

Chunki hozirgi davrda bu masala juda sust yechilmoqda.

Yuqoridagilar bilan birga chorvachilik mahsulotlarining shartnomaviy baholari inflyatsiya darajasini e'tiborga olgan holda oshirilishiga ham davlat tomonidan yordam ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu mahsulotlarni asosan davlat aktsiyadorlik korxonalari sotib olmoqdalar.

Ta'kidlangan barcha masalalarning ijobjiy hal etilishi tarmoqlarda faoliyat ko'rsatayotgan ishchi-xizmatchilarning munosabatlariga, bilimiga, tajribasiga, e'tiqodiga, onggiga hamda rag'batlantirilishiga bevosita bog'liq. Shunday ekan, bu masalalarni hal etish mexanizmlarini, yo'llarini yanada rivojlantirish zarur. Ishchi- xizmatchilarning ish haqlarini vaqtida berish hamda ularni yetishtirgan mahsulotlari miqdori va sifatini e'tiborga olgan holda mukofotlashning real usulini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Chorvachilik tarmoqlari hisoblangan parrandachilik, pillachilik, yilqichilik, asalarichilik, baliqchilik iqtisodiyoti haqida ham shu mazmundagi fikrlarni aytish mumkin. Lekin bu tarmoqlarning iqtisodiyotini o'rganishda ularning o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, parrandachilikni sanoat negizida hamda g'allachilik xo'jaliklarida tashkil etib, rivojlantirish va boshqalarni e'tiborga olish lozim.

Bob bo'yicha takliflar

Bizning fikrimizcha, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish va qayta ishlashda xarajatlarni bevosita turkumlashga ajratilinishi mahsulot tannarxini kalkulatsiya qilinishining mohiyatini tushuradi.

Bizning fikrimizcha, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish va qayta ishlashda xarajatlarni bevosita hamda bilvosita turkumiga ajratilishi mahsulot tannarxini kal’kulyasiya qilinishining mohiyatini tushuradi. Shuning uchun xarajatlarni mahsulot tannarxiga qo‘shiladigan va qo‘shilmaydigan turkumlarga ajratish tannarx hisoblashning mohiyatini yaqqol olib beradi.

Biz tadqiqotimiz natijalariga asoslanib, qishloq xo‘jalik mahsuloti ya’ni sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish va uni qayta ishlash bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni berdik. Xarajatlarni quyidagi belgilar bo‘yicha turkumlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- Korxonalarining moliya-xo‘jalik faoliyati bo‘lgan umumiylar xarajatlar. Ushbu xarajatlar xo‘jalikning moliyaviy natijasiga va soliqlar miqdoriga ta’sir etadi.
- Xarajatlarni mahsulotni ishlab chiqarishga ta’sir etishi bo‘yicha turkumlash. Ishlab chiqarish xarajatlari to‘g‘ri va real turkumlarga ajratilmas ekan, ichki rezervni topish ham aniq yo‘naltirilmaydi.

Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda ishlab chiqarish xarajatlari o‘z vazifasiga qarab xarajat elementlari va kal’kulyasiya moddalariga bo‘linadi. Ularda xarajatlarni elementlar bo‘yicha guruhlash qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy mazmuniga ko‘ra tutgan o‘rnini aniqlash va biznes rejalarini tuzish uchun xizmat qiladi. Kalkulyasiya moddalarini bo‘yicha guruhlash mahsulot tannarxini hisoblashda xamda tahlil etishda muhim o‘rin egallaydi.

Umuman xarajatlarning ilmiy asosda turkumlanishi ularni to‘g‘ri hisobga olish va tahlil qilishni yengillashtiradi.

Bugungi kunda ekologik taraqqiyotga erishish, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, cheklangan resurslardan maksimal darajada oqilona foydalanish masalalari nafaqat milliy iqtisodiyot, balki butun jahon hamjamiyati oldida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan muhim vazifalardan sanaladi.

Respublika aholisini qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabini yanada to‘laroq qondirish va sifatli mahsulotlar bilan iste’mol bozorini uzlusiz ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan keyingi yillarda sohani rivojlantirish bo‘yicha alohida qarorlar qabul qilinayotganligi hamda, sohaning subsidiyalash tizimlari yaratilgani, ularning ijrosini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar o‘zining ijobiy natijalarini berdi. Tizimda yomg‘ir suvini yig‘ish, sug‘orish va tomchilab sug‘orishni joriy etish, suv nasoslaridan foydalanish orqali bir mavsumda qariyb 30 foizgacha suvni tejash imkoniyatlari mavjud. Qayd etilishicha, qaror ijtimoiy va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish sohalarida hamda iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, energiya samaradorligini oshirish orqali respublika hududlarida energiya taqchilligi qoplanishini ta’minlash, bu boradagi ishlarni kompleks tashkil etish hamda investorlar uchun qulay sharoitlar va rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy qilish maqsadida qabul qilingan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL FOUNDATIONS FOR THE ORGANIZATION AND CAPACITY BUILDING OF EXECUTIVE EMPLOYEE LABOR IN PUBLIC ADMINISTRATION BODIES. *Modern Science and Research*, 3(1), 939-946.
2. Ibodulloyevich, I. E. (2023). DAVLAT BUDGETI DAROMADLARINI TAQSIMLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 321-325.
3. Ibodulloyevich, I. E. (2023). MAHALLIY BUDGET DAROMADLARINI PROGNOZLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHDAGI MUAMMOLAR.
4. Ibodulloyevich, I. E. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI YANADA RIVOJLANТИRISH UCHUN QULAY ISHBILARMONLIK MUHITINI SHAKLLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 481-484.
5. Ikromov, E. (2023). REGULATION OF BUSINESS ACTIVITY IS SIMPLIFIED. *Modern Science and Research*, 2(12), 1107-1111.
6. Ibodulloyevich, I. E. (2023). TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH SODDALASHTIRILADI.
7. Ibodulloyevich, I. E. (2024). DAVLAT BOSHQARUVI ORGANLARIDA RAHBAR XODIMLAR MEHNATINI TASHKIL ETISH VA SALOHIYATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.
8. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TAMOYILLARI VA USLUBLARIDAN FOYDALANISHDA RAHBAR MEHNATINING AHAMIYATI.
9. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ZAMONAVIY MENEJMENT TIZIMIDA RAHBARLIK USLUBLARINING TASNIFLANISHI.
10. Ibodulloyevich, I. E. (2024). ISHLAB CHIQARISHDA RAHBAR MEHNATINING ASOSIY O'RNI VA KORXONALAR IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, (45), 311-315.
11. Ibodulloyevich, I. E. (2024). Respublikada Xizmatlar Sifati Va Raqobatbardoshligini Oshirish Orqali Xizmatlar Eksportini Rivojlanтиrish Istiqbollari. *Gospodarka i Innowacje.*, 46, 247-251.
12. Ikromov, E. (2024). DIRECTIONS FOR IMPROVING THE ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS OF INCREASING THE QUALITY AND COMPETITIVENESS OF SERVICES. *Modern Science and Research*, 3(2), 803-810.
13. Ikromov, E. (2024). THEORETICAL APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF MODERN MANAGEMENT AND ITS METHODS. *Modern Science and Research*, 3(2), 811-819.

- 14.** Ikromov, E. (2024). USE OF FOREIGN EXPERIENCES IN THE ORGANIZATION OF MANAGERIAL WORK IN PRODUCTION ENTERPRISES AND ITS IMPROVEMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 820-828.
- 15.** Ikromov, E. (2024). FOREIGN EXPERIENCES OF SERVICE SECTOR DEVELOPMENT. *Modern Science and Research*, 3(2), 794-802.
- 16.** Ikromov, E. (2023). PROBLEMS IN IMPROVING THE FORECASTING OF LOCAL BUDGET REVENUES. *Modern Science and Research*, 2(10), 794-797.
- 17.** Ikromov, E. (2024). THE IMPORTANCE OF MANAGERIAL WORK IN THE USE OF MODERN MANAGEMENT PRINCIPLES AND METHODS. *Modern Science and Research*, 3(1), 18-23.
- 18.** Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA USLUBIY YONDASHUV.
- 19.** Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KO 'RSATISH KORXONALARINING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AFZALLIKLARI.
- 20.** Ibodulloyevich, I. E. (2024). XIZMAT KORSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.
- 21.** Turayevich, I. A. (2024). Iqtisodiyotga Investitsiyalarni Jalg Qilish Va Boshqarishning O 'Ziga Xos Xususiyatlari. *Miasto Przyszlosci*, 53, 1231-1237.
- 22.** Ibragimov, A. T. (2024). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIIJY INVESTITSIYANI JALB QILISHNI SOLIQLAR VOSITASIDA RAG 'BATLANTIRISH. *Gospodarka i Innowacje*, 51, 116-122.
- 23.** Turayevich, I. A. (2024). Milliy Iqtisodiyotga Xorijiy Investitsiyalarni Jalg Qilishda Soliqlarning O 'Rni. *Gospodarka i Innowacje*, 53, 205-213.
- 24.** Aziz, I. (2023). O'zbekistonda xorijiy investitsiyani jalg qilishni soliqlar vositasida rag'batlantirish yo'llari. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSİYALAR JURNALI*, 1(5), 191-196.
- 25.** Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING O'ZINI O'ZI BANDLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 321-325.
- 26.** Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). INNOVATIVE MANAGEMENT AS A FACTOR OF SUCCESSFUL DEVELOPMENT OF AN ENTERPRISE. *ANALYSIS OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION*, 1(2), 315-320.
- 27.** Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). KORXONADA ISH HAQI TO'LASH TIZIMLARI VA SHAKLLARI. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 279-285.
- 28.** Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). STAGES OF BUSINESS VALUATION. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 1(2), 167-175.

29. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). O 'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA XMHSNI TADBIQ ETISH XUSUSIYATLARI. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 253-258.
30. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING ILGOR XORIJY TAJRIBASI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, 1(2), 176-181.
31. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). MONOPOLIYA VA ANTIMONOPOL SIYOSAT. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 464-468.
32. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). AHOLINING OZINI OZI BANDLIGINI TAMINLASHNING MAZMUN-MOHIYATI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLDT*, 1(2), 162-166.
33. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). ENTERPRISE MARKETING STRATEGY. *MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS*, 1(3), 259-265.
34. Sodiqova, N. T., & Qudratova, G. M. (2024). TASHKILOTNING INNOVATSION FAOLIYATI SAMARALIGINI BAHOLASH. *STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS*, 1(2), 286-294.
35. Qudratova, G. M., & Sodiqova, N. T. (2024). RAQOBAT TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA USULLARI. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 1(2), 459-463.
36. Qudratova, G. M. (2024). METHODOLOGY OF ANALYSIS OF COMPETITIVENESS OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN BUKHARA REGION. *International journal of artificial intelligence*, 4(10), 341-345.